

03.10.2022j

Xonqa tumanida

Keyingi o'rinlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladigan **Xonqa tumani Maktabgacha ta'lim bo'limi** nomidan **Nizom** asosida ish ko'ruvchi mudiri **F.Sabirov** bir tomondan, keyingi o'rinlarda «Pudratchi» deb yuritiladigan «**MEGA QIZILQUM**» MCHJ nomidan **Ustav** asosida ish yurutuvchi **R.Sotliqov**.

1. TA'RIFLAR

1. Mazkur shartnomada quyidagi ta'riflar qo'llaniladi;

-**ijro xujjatlari** – naturada bajarilgan ishlar yoki ishlarni bajarish uchun mas'ul bo'lgan shaxslar tomonidan ularga kiritilgan o'zgarishlarning ushbu ishchi chizmalarga muvofiqligi tug'risidagi yozuvlar bilan birgalikda ob'ekt qurilishiga ishchi chizmalar turkumi, sertifikatlar, texnik pasportlar va o'rnatilgan asbob-uskunalarining sifatini va ishlarini bajarishda ko'llaniladigan materiallar, konstruksiyalar va detallarning sifatini tasdiklovchi boshqa xujjatlar, berkitiladigan ishlar tasdiklanganligi tug'risidagi dalolatnomalar, ayrim mas'uliyatli konstruksiyalar oraliq davrda qabul qilinishi to'g'risidagi dalolatnomalar, montaj qilingan asbob-uskunalarining yakka tartibdagi sinovi to'g'risidagi dalolatnomalar, ishlarni bajarish daftarlari hamda qurilish normalari va qoidalarida nazarda tutilgan boshqa xujjatlar;

-**qurilish maydoni** – mazkur shartnoma (kontrakt) doirasida barcha ishlarni bajarish davrida dalolatnoma buyicha Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga berilgan er uchastkasi. Ob'ektning kurilish maydoni chegarasi ajratib kuyiladi yoki bosh rejaga muvofik belgilanadigan boshqa belgilar bilan belgilab kuyiladi;

-**vaktinchalik inshootlar** – Pudratchi tomonidan qurilish maydonida o'rnatiladigan va ishlarni bajarish uchun zarur bulgan har kanday tipdagi vaqtinchalik binolar va inshootlar;

-**berkitiladigan ishlar** – sifati va aniqligini keyingi ishlar bajarilgandan keyin aniklash mumkin bulmagan keyinchalik bajariladigan ishlar va konstruksiyalar bilan berkitiladigan ishlar;

-**shartnoma narxini bo'lib chiqish** – ishlarning har bir bosqichi va yoki turlari qiymatini anik belgilagan holda shartnoma buyicha ob'ektning umumiy kiymatini bosqichlarga taqsimlash.

2. SHARTNOMA MAVZUSI.

1. Pudratchi mazkur shartnoma shartlariga muvofiq «Xonqa tumani № 24-sonli Maktabgacha ta'lim tashkiloti binosini» joriy ta'mirlash buyicha ob'ektini ko'zda tutilgan loyixa buyicha joriy ta'mirlash ishlarini bajarish majburiyatini oladi, Buyurtmachi esa Pudratchiga joriy ta'mirlash ishlarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni kabul kilish va tulovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

3. SHARTNOMA BUYICHA ISHLAR KIYMATI.

1. Mazkur shartnoma buyicha Pudratchi tomonidan bajariladigan, ishlar kiymati barcha soliklar, yigimlar, ajratmalar va pudratchining boshqa xarajatlarini uz ichiga olgan xolda katalog ,bozor, birja va joriy narxlarda QOS bilan 135 000 000 (bir yuz o'ttiz besh million) so'mni tashkil etadi.

2. Ishlar qiymati uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, kuyidagi hollar bundan mustasno:

- qurilish qiymatini ko'paytirishga engib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari sabab bo'lganda;

- ishlar qiymati buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda;

- ob'ektning qurilishi bir yildan ortiq muddatga o'zgartirilganda.

3. Kurilish muddati bir yildan ortik bo'lganda ikkinchi yilga va keyingi yillarga shartnomaviy narxlarni aniklashtirish konun xujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

4. Tegishli asoslar mavjud bo'lganda, sanab o'tilgan o'zgarishlar Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi shartnomaga ko'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

1. Mazkur shartnoma buyicha Pudratchi mazkur shartnomaning II birlimida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun:

- barcha ishlarni mazkur shartnomada xamda unga 2-ilovaga muvofiq ishlarni bajarish jadvalida nazarda tutilgan xajmda va muddatlarda uzining kuchlari yoki jalb qilingan kuchlar bilan bajarish xamda ishni Buyurtmachiga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshirish;

- qurilish maydoniga zarur qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, qurilish texnikasini etkazib berish, ularni kabul kilish, tushirish, omborga joylash va saqlashni ta'minlaydi;

- qurilish maydoni xududida vaqtinchalik inshootlar qurish;

- Buyurtmachini subpudratchilar bilan shartnomalar tuzilishi, shartnoma mavzusi, subpudratchining nomi va manzili to'grisida xabardor qilish;

- qurilish maydonida texnika havfsizligi, ishlarni bajarish vaqtida atrof muhitni, o'tkazilgan daraxtlarni va er uchastkasini muhofaza qilish bo'yicha zarur tadbirlar bajarilishini ta'minlash, shuniingdek yoritish chiroqlari o'rnatish;

- qurilish tavakkalchiliklarini sugurta qilish;

- mazkur shartnoma buyicha ob'ektni foydalanishga qabul qilib olish to'grisidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab bir oy muddatda qurilish maydonini o'ziga tegishli qurilish mashinalari va asbob – uskunalari, transport vositalari, anjomlar, priborlar, inventarlar, qurilish materiallari, buyumlar konstruksiyalar xamda vaqtinchalik binolardan bo'shatish;

- qurilish maydoni qo'riqlanishini ta'minlash;

- qurilishda tavakkalchilik sug'urtasi uchun belgilangan summaga sug'urta tashkilotlaridan biri bilan tavakkalchilik sug'urtasi to'grisida shartnoma tuzadi va sug'urta shartnomasi bilan sug'urta polisini byurtmachiga taqdim qiladi.

- mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

2. Pudratchi mavjudligini kafolatlagan uzining 20% ga teng bulgan va unga xizmat ko'rsatuvchi bank tomonidan berilishi kafolatlangan 20% aylanma mablag'larini mazkur shartnomada ko'zda tutilgan ob'ekt xarajatlari uchun unumli ishlatish majburiyatini oladi.

3. Pudratchi ob'ektni foydalanishga topshirish uchun Buyurtmachiga barcha ishlar bajarilganini isbotlovchi xujjatlarni (ispolnitelnaya dokumentatsiya) tuliq hajmda takdim qiladi.

4. Pudratchi mazkur shartnoma buyicha barcha ishlarning o'z kuchlari bilan va subpudratchilar tomonidan zarur tarzda bajarilishi hamda ob'ektning foydalanishga tayyor holda topshirilishi uchun Buyurtmachi oldida to'liq mulkiy javob beradi.

5. BUYURTMACHINING MAJBURIYATLARI

1. Mazkur shartnomani bajarish uchun Buyurtmachi:

- mazkur shartnomaga muvofiq ishlarni bajarish uchun yaroqli bo'lgan qurilish maydonini ob'ekt qurilishi va qurilish tugallanguncha bo'lgan davrga dalolatnoma bo'yicha Pudratchiga berish;

- ishlar bajarilishi ustidan doimiy arxitektura-qurilish nazoratini va mazkur shartnomada kayd etilgan Pudratchi tomonidan kabul kilingan majburiyatlar va boshka funksiyalarga rioya etilishini nazorat kilish, Pudratchidan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta'minlash;

- Pudratchining barcha murojaatlarini un kun muddatda ko'rib chikish va qaror qabul qilish;

- moliyalashtirish jadvaliga binoan Pudratchiga 1-ilovaga muvofiq avans berish va joriy moliyalashtirishni amalga oshirish;

- Pudratchiga ishlarni qabul qilish uchun zarur bo'lgan ijro xujjatlari ro'yxatini taqdim etish;

- mazkurshartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'lik hajmda

bajarish

majburiyatlarini oladi;

2. Buyurtmachi mazkur shartnomada kuzda tutilgan o'z majburiyatlarini bajarmasa yoki etarli tarzda bajarmasa pudratchi oldida to'lik mulkiy javob beradi.

6. ISHLARNI BAJARISH MUDDATLARI.

1. SHartnoma tomonlar uni imzolagan paytdan boshlab kuchga kiradi.

2. Pudratchi mazkur shartnomaga ilova kilingan ishlarni bajarish jadvaliga muvofiq ishlarni bajaradi.

3. Ob'ektni 2022 yil «3» noyabrgacha foydalanishga topshirilishi belgilanadi.
4. SHartnomaning amal kilish muddati 31.12.2022 yilgacha

7. TULOVLAR VA XISOB – KITOBLAR

1. SHartnoma buyicha o'zaro hisob-kitoblar milliy valyuta - «so'mda» qilinadi.

17. Buyurtmachi mazkur shartnoma bo'yicha ishlar umumiy joriy qiymatining 30% miqdorida avans o'tkazadi, bu **40 500 000 (qirq million besh yuz ming)** so'mni tashkil etadi.

2. Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga avans berish va joriy moliyalashtirish uchun byudjetdan maqsadli berilgan mablag'lar uch banka kunida moliyalashtirish va ishlarni bajarish jadvali asosida amalga oshiriladi. (1,2-ilovalar)

3. Buyurtmachi tamonidan joriy moliyalashtirish bajarilgan ishlar hajmi va sifati tekshirilib qabul qilingandan keyin xaqiqiy bajarilgan ishlar qiymatidan berilgan avans summasini proporsional ushlab qolgan xolda moliyalashtirish jadvali buyicha amalga oshiradi.

4. Pudratchining xisob rakamiga tushadigan mablag'lar ushbu ob'ekt qurilishi xarajatlariga, shuningdek ta'minotchilarga, ob'ekt qurilishiga zarur bulgan materiallar, texnika resurslari, mehnatga xaq to'lash, ob'ekt qurilishida ishtirok etayotgan yordamchi tashkilotlarga to'lash uchun va ushbu ob'ekt qurilishining boshqa xarajatlariga qat'iy sarflanadi.

5. Pudratchi joriy moliyalashtirish uchun hisobot o'yning oxirgi kunigacha va yakuniy moliyalashtirish uchun hisob kitob uchun kurilish montaj ishlari miqdori, xarajatlari to'grisidagi «Bajarilgan ishlar qiymati to'grisidagi ma'lumotnoma xisob-varak-fakturani» o'zi tuzib takdim kiladi. Buyurtmachi bajarilgan qurilish-montaj ishlarining miqdori, sifati va harajatlarini tekshirib qabul qilib imzolaydi.

6. Buyurtmachiga joriy moliyalashtirish va yakuniy xisob-kitob uchun, bajarilgan qurilishmontaj ishlarini miqdori, sifati va xarajatlari tekshiruvidan sung Pudratchi tomonidan tuziladigan va Buyurtmachi tomonidan kabul qilib imzo chekiladigan «Bajarilgan ishlar qiymati tugrisidagi ma'lumotnoma-xisob-varak-faktura» asos buladi.

7. Pudratchi ob'ekt foydalanishga topshirilgunga qadar mazkur shartnoma buyicha ob'ektga mulk xuquqini o'zida saklaydi. Ob'ekt Buyurtmachiga topshirgunga qadar ob'ektning tasodifiy yuq qilinishi va shikastlanishi xavfi Pudratchining zimmasida bo'ladi.

8. TOMONLARNING KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA MAJBURIYATLARI

8.1. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda tomonlar korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qoidalarga, shu jumladan amaldagi qonunlarga rioya etilishini ta'minlaydi; ya'ni tomonlar bir-biriga yoki davlat ishtirokidagi tashkilot xodimiga pora berish yoki pora berishda vositachilik qilish, moddiy yoki nomoddiy naf olishdan tiyilishi lozim. Tomonlar ushbu harakatlarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilinishini kafolatlaydi.

8.2. Tomonlar korrupsiyaga qarshi qoidalar buzilganda yoki asosli gumonlar yuzaga kelganda darhol yozma ravishda (elektron pochta orqali) yoki ishonch telefoni orqali bir-birini xabardor qilish majburiyatini oladi. Bunda tomonlar yuzaga kelgan holatga oydinlik kiritish maqsadida yozma izoh talab qilish huquqiga ega va murojaatni olgan tomon 10 (o'n) ish kuni mobaynida tushintirish berishi yoki o'z fikrini bildirishi mumkin.

8.3. Mazkur bobning talablari bajarilmaganda, shu jumladan belgilangan muddatda korrupsion xavf-xatar bartaraf etilmasa, tomonlar amalga oshirgan choralarda korrupsion holatni pasayishiga olib kelmasa, boshqa tomon shartnomani bekor qilish huquqiga ega yoki uning ijrosini to'xtatib qo'yishi mumkin.

BUYURTMACHI

1. Buyurtmachi qurilish maydonida o'z vakilini – texnik auditorni tayinlaydi, u

Buyurtmachining nomidan bajarilayotgan ishlar sifati ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek Pudratchi tomonidan foydalaniladigan materiallar va asbob-uskunalarining shartnoma shartlariga va ish xujjatlariga muvofikligini tekshiradi.

2. Texnik auditor ishlar bajarilishining va shartnomaning butun davri mobaynida ishlar barcha turlari bilan to'liqsiz tanishish xukukiga egadir.

3. Pudratchi texnik auditorni ishlash uchun joy bilan ta'minlaydi. Texnik auditor pudratchi tomonidan o'tkaziladigan qurilish maydonida ishlarni amalga oshirish chog'ida paydo buluvchi masalalarni xal qilish bo'yicha yig'ilishlarda muntazam ravishda qatnashadi.

4. Pudratchi ishlarni bajarish loyixasiga va mazkur shartnomaning VI-bulimida ko'rsatilgan muddatlar bilan muvofiklashtirilgan o'z rejasi va ish jadvaliga binoan ob'ektda ishlarni bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi.

5. Pudratchi Buyurtmachining manfaatlariga jiddiy ta'sir qilmaydigan ish xujjatlaridan mayda chetga chikishlarni Buyurtmachining roziligisiz amalga oshirsa, u agar bularning qurilish sifatiga ta'sir etmaganligini isbotlasa javobgar xisoblanmaydi.

6. Agar Buyurtmachi Pudratchi va (yoki) uning subpudratchilari tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniklasa, u xolda Pudratchi o'z kuchlari bilan va qurilish qiymatini ko'paytirmasdan ushbu ishlarni ularni zarur sifatini ta'minlash uchun kelishilgan muddatda kayta bajarishga majburdir.

Agar Pudratchi sifatsiz bajarilgan ishlarni kelishilgan muddatlarda tuzata olmasa, Pudratchi ularni tuzatishning kechiikishi okibatida etkazilgan zararlarni Buyurtmachiga to'laydi.

7. Ishlar boshlangan paytdan boshlab ular tugallangungacha Pudratchi ishlarni bajarish daftarini yuritadi. Daftarda butun ishlarni borishi, Buyurtmachi va Pudratchining uzaro munosabatlarida axamiyatga ega bulgan xollar va xolatlar (ishlarni boshlanishi va tamom bo'lishi sanasi, materiallar, asbob-uskunalar berilishi, xizmatlar ko'rsatilishi sanasi, ishlarni qabul qilib olinishi, o'tkazilgan sinovlar, materiallar o'z vaqtida etkazib berilmasligi bilan bogliq to'xtab qolishlar, qurilish texnikasining ishdan chiqishi to'grisidagi ma'lumotlar, shuningdek qurilishni tugallashning uzil-kesil muddatiga ta'sir kilishi mumkin bo'lgan barcha ma'lumotlar) aks ettiriladi.

Agar Buyurtmachi ishlarning borishi va sifatidan yoki Pudratchining qaydlaridan qonikmasa, u xolda ishlarni bajarish daftarida uz fikrini bayon kiladi.

Pudratchi daftarda Buyurtmachi tomonidan asosli ravishda ko'rsatilgan kamchiliklarni 3 kun muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish majburiyatini uz zimmasiga oladi.

9. ENGB BULMAYDIGAN KUCH (FORS MAJOR) XOLATLARI.

1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'lik bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshqa engib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'lik bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati engib bo'lmaydigan kuch xolatlari amal qilgan, shuningdek ushbu xolatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

2. Agar engib bulmaydigan kuch xolatlari yoki ularning oqibatleri bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni konservatsiya qilish uchun kandy choralar ko'rilishini muxokama kiladilar.

3. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u xolda tomonlarning xar biri shartnoma bekor kilinishini talab qilishga xaqlidir.

10. KAFOLATLAR.

1. Pudratchi:

- barcha ishlarni tuliq xajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini;

- loyixa xujjatlariga xamda qurilish me'yorleri, qoidalari va texnik shartlariga muvofiq barcha ishlarni bajarish sifatini;

- o'zi tomonidan qurilish uchun qullaniladigan qurilish materialleri, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiya va tizimlar sifatini, ularning loyiha xujjatlarida ko'rsatilgan sertifikatsiyalarga, davlat standartlariga xamda texnik shartlarga muvofiqiligini;

- ishlarni kabul kilish va ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlangan kamchiliklar va nuksonlarni uz vaktida bartaraf kilishni;

- ob'ektdan foydalanilganda muxandislik tizimlari va uskunalarning foydalanish qoidalariga muvofiqiligini kafolatlaydi.

Mavjud nuksonlar va ularning bartaraf etish muddatlari Pudratchi va Buyurtmachining ikki tomonlama dalolatnomasida kayd etiladi.

Agar Pudratchi bajarilgan ishlardagi nuqsonlar va chala ishlarni, jumladan uskunalarining kamchiliklarini dalolatnomada ko'rsatilgan muddat ichida bartaraf etmasa, u xolda Buyurtmachi mazkur shartnomaning umumiy summasini 5% miqdorida jarima solish xuquqiga ega.

11. SHARTNOMANI BEKOR KILISH.

1. Buyurtmachi:

- shartnoma kuchga kirgandan keyin joriy ta'mirlash boshlanishi Buyurtmachiga bogliq bo'lmagan sabablarga ko'ra Pudratchi tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda;

- ishlarni tugatishning mazkur shartnomada belgilangan muddati Pudratchining aybi bilan bir oydan ortik muddatga ko'paygan xolda, Pudratchi tomonidan ishlarni bajarish jadvaliga rioya etilmaganda;

- Pudratchi tomonidan shartnoma shartlari qurilish me'yorlari va qoidalarida nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda; qonun xujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish xukukiga ega.

2. Pudratchi:

- ishlarning bajarilishi Pudratchiga bogliq bo'lmagan sabablarga ko'ra Buyurtmachi tomonidan ikki oydan ortik muddatga to'xtatib ko'yilganda;

- Buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari umuman bajarilmaganda; qonun xujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish xukukiga ega.

3. SHartnoma bekor qilinganda Buyurtmachi va Pudratchining qo'shma qaroriga ko'ra tugallanmagan qurilish bir oy muddatda Buyurtmachiga beriladi, Buyurtmachi bajarilgan ishlar qiymatini Pudratchiga tulaydi.

4. Mazkur shartnomani bekor qilishga qaror qilgan tomon mazkur bo'lim qoidasiga muvofiq ikkinchi tomonga yozma bildirishnoma yuboradi.

5. SHartnoma bekor qilingan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga etkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.

6. SHartnomaning bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l ko'yilmaydi, konun xujjatlarida yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan xollar bundan mustasno.

12. TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI.

1. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon: O'zbekiston Respublikasi Fukarolik kodeksida, Uzbekiston Respublikasi «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-xuquqiy bazasi to'g'risida» gi qonunida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 6 may 2003 yildagi PF-3240 sonli farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining 395-sonli qarori bilan, boshqa qonun xujjatlarida xamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda javobgarlikka tortiladi va ikkinchi tamonga etkazilgan zararlarni qoplaydi.

2. Mazkur shartnomada ko'zda tutilgan va tegishli ilovalarda ko'rsatilgan majburiyatlarini bajarmaganligi yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda Buyurtmachi Pudratchi oldida quyidagi xollarda javobgar bo'ladi va:

- belgilangan muddatda ob'ektni ish boshlash uchun pudratchiga topshirmasa dalolatnoma bo'yicha buning oqibatida ishlarni bajarish jadvalida bajarish ko'zda tutilgan ishlarning bajarilmagan qismining 5% miqdorida jarima to'laydi;

- buyurtmachining xisob raqamiga maqsadli moliyalashtirish uchun tushgan pul mablag'larini uch banka kunida sababsiz pudratchining xisob raqamiga o'tkazib bermasa ushlab turilgan summaning 5% miqdorida jarima to'laydi;

- shartnomaga muvofiq ishlarni bajarish jadvali bo'yicha bajarilgan ishlar hajmini asossiz ravishda qabul qilib tasdiqlashdan bosh tortgani uchun ushbu qabul qilish, tasdiqlashdan bosh tortgan summaning 5% miqdorida jarima to'laydi;

- shartnoma shartlariga muvofiq tayyor xolda qabul qilish uchun taqdim qilingan ob'ektni asossiz ravishda qabul qilishdan bosh tortsa shartnoma qiymatining 5% miqdorida jarima to'laydi;

3. Mazkur shartnomada ko'zda tutilgan va tegishli ilovalarda ko'rsatilgan majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda Pudratchi Buyurtmachi oldida quyidagi hollarda mulkiy javobgar bo'ladi va:

-Ishlarni bajarish jadvalida belgilangandan kam xajmdaishlarni bajarsa, majburiyatlarining bajarilmagan qismidan xar kechiktirilgan kun uchun 0.5% miqdorda penya to'laydi.

- Ishlarni «ishlarni bajarish jadvalida» belgilangan miqdorda bajarib tegishli tartibdagi ma'lumotlar bilan xisobot oyining oxirgi kuniga qadar tasdiqlatmasa «ishlarni bajarish jadvalida» belgilangan ishlar qiymatining 5% miqdorida jarima to'laydi;
 - Ishlarni «ishlarni bajarish jadvalida» belgilangan miqdordan kam bajarsa, bajarilmagan qismining 5% miqdorida jarima to'laydi;
 - ob'ektni shartnomada belgilangan muddatda tayyor xolda foydalanishga topshirmasa shartnoma qiymatining 5% miqdorida jarima to'laydi;
 - Buyurtmachi, nazoratchi, foydalanuvchi tashkilotlar va ishchi komissiyasi tamonidan aniqlangan kamchiliklar, nuqsonlar va sifatsiz bajarilgan ishlarni belgilangan (o'n kundan ortiq bo'lmagan) muddatda bartaraf qilmasa ushbu aniqlangan kamchiliklar, nuqsonlar va sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 5% miqdorida jarima to'laydi.
4. Agarda tomonlardan biri o'z rekvizitlarini shu jumladan yuridik va pochta manzillarini, telefon raqamlarini, korxonasi atamasi yoki maqomini noto'g'ri bersa va o'zgarganligi to'grisidagi ma'lumotni uch kalendar kunda ikkinchi tamonga yozma xabar bermasa aybdor tamon ikkinchi tomonga shartnoma bahosining 0,1% miqdorida jarima to'laydi.
5. Bir tamonning aybi bilan shartnomani bekor qilishga to'g'ri kelsa, aybdor tamon ikkinchi tamonga barcha zararlarni qoplaydi, amaldagi qonunlarda belgilangan tartibda.
6. Tamonlarning mulkiy javobgarlikka tortilib to'laydigan neustoyka, shtraf va penyalari shartnoma qiymatining 30% oshmasligi kerak.
7. Tamonlar neustoyka, jarima, penya kabi mulkiy talablarini dalolatnoma asosida to'lov talabnomasi bo'yicha akseptsiz amalga oshirishga xaqlidir.

13. NIZOLARNI XAL ETISH TARTIBI.

1. SHartnomani bajarishda va bekor qilishda yoki o'zgartirishda shuningdek etkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo'ladigan barcha nizoli masalalarni tomonlar muhokama bilan kelishuvga erishmasalar, u holda ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sudga murojat qilishlari mumkin.

14. ALOXIDA SHARTLAR


1. Mazkur shartnoma imzolanganidan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo'lgan tomonlar o'rtasidagi barcha oldingi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning o'zaro kelishuvlari o'z kuchini yuqotadi.
2. Pudratchi qurilish ob'ektiga yoki uning aloxida qismlariga tegishli ish hujjatlarini Buyurtmachining yozma ruxsatisiz, subpudratchilardan tashqari, biron-bir uchinchi tomonga sotish yoki berish xuquqiga ega bo'lmaydi.
3. Mazkur shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlar ularni imzolashgan bo'lsa, xaqiqiy hisoblanadi.
3. Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi mazkur shartnomadan kelib chiqmaydigan yangi majburiyatlar paydo bo'lishiga olib keladigan xar qanday axdlashuvni tomonlar mazkur shartnomaga qushimchalar yoki o'zgartirishlar shaklida yozma ravishda tasdiklashi kerak.
4. Agar Pudratchi shartnoma buyicha ishlar yakunlangandan keyin qurilish maydonida o'ziga tegishli mol-mulkni qoldirsa, u xolda Buyurtmachi Pudratchi kurilish maydonini ozod kilish sanasigacha bajarilgan ishlar uchun unga xak tulashni kechiktirishga xaklidir.
5. Mazkur shartnomaning joriy narxlardagi kelishilgan summasi me'yoriy-qonun hujjatlariga K.K.S. to'grisida o'zgartirishlar kiritilsa qayta ko'rib chiqiladi.
6. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha xollar uchun amaldagi qonun hujjatlari qo'llaniladi.
7. Mazkur shartnoma tamonlar imzolagan kundan boshlab kuchga kiradi va barcha ko'zda tutilgan shartnoma shartlari to'laligicha bajarilgunga qadar amal qiladi.
8. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 3 nusxada tuzildi.

MANZILLARI.

«BUYURTMACHI»

«PUDRATCHI»

Byudjetdan mablag oluvchi Xonqa tuman maktabgacha ta'lim bo'limi	«MEGA QIZILQUM» MCHJ
Manzil: Xonqa tuman Imorat ko'chasi 1-uy	Manzil: Yangiariq tuman Kim Oleg ko'chasi 12-uy
Tel/faks 39-91-713	Tel:
sh/x* 100022860332237091100251002	x/r: 2020 8000 9048 1783 6001
Byudjetdan mablag oluvchi SRIR 305155680	Bank nomi: ATB "Qishloq qurilish bank" Xorazm BXO
OKONX 84112	
Moliya Vazirligi YA gona Gazna xisobvaragi	MFO:01037
Gazna x/v 23402000300100001010	INN: 301 381 713
Bank nomi Toshkent sh, Markaziy bankning	
Toshkent sh, XKKM MFO: 00014	
Gaznachilik bulinmasi STIR i 201122919	
Mudiri: F.Sabirov	Rahbari: R.Sotliqov



Объектни жорий таъмирлаш бўйича молиялаштириш графиги

шартномага 1-илова

Молиялаштириш шарти	Молиялаштириш ойлари												
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	
Олдиндан тулов 30%										40 500 000,00			
Бақаришган ишларга асосан 70%										94 500 000,00			

сўмда

«МЕГА ҚИЗЛОҚУМ» МСНУ

Handwritten signature

Р.Соғликов

Хонқа тумани Мактабгача таълим бўлими

Муҳри:

Ф.Сабилов



Жорий таъмирлаш ишларини бажариш графиги

Шартномага 2-илова

Бажариладиган ишлар	Бажариладиган ойлари												
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	
Жорий таъмирлаш										135000000			

сўмда

«МЕГА ҚИЗЛОҚ» МСНД



Рақоби:

[Handwritten signature]

Р.Соғликов

Хонка тумани Мактабгача таълим бўлими

Мудир:




Ф.Сабилов

YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARHING QONUN
XUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA
XUQUQIY HULOSA

№ GY23828170

1. Loyi haning turi: Shartnoma
2. Loyi haning nomi:
«Buyurtmachi» Xonqa tumani Maktabgacha ta'lim bo'limi bilan
«Pudratchi» MEGA QIZILQUM» MCHJ o'rtasida tuzilgan Xonqa tumani
№ 24-sonli Maktabgacha ta'lim tashkiloti binosini joriy ta'mirlash buyichatuzilgan
pudrat shartnomasi loyihasi. (Shartnomaning umumiy bahosi 135000000 so'mni
tashkil qiladi.)
3. Loyiha ishlab chiqaruvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot.
Xonqa tuman maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan 2022 yil 03 oktabr kuni
ishlab chiqilgan.
Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul
qilish maqsadga muvofiq.

Xonqa tuman yuridik xizmat ko'rsatish
markazi bosh yuriskonsul'ti



Z.Xaitov

2022 yil 03 oktabr